

IFRS” HOMLI
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЙЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАР
“Глобал ва миллий
иқтисодий трендлари”

CONFERENCE

19-20
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES
“NEW2AN, ICFNDS
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS

NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE
“IFRS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL

“IFRS”

HOMLI

KONFERENCIYA

МАЛЛИ
ИШТИ

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

2023

ILMIY ELEKTRON JURNAL MAXSUS SON

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО
АХБОРОТ ТЕХНОЛ
ВА ТАЪЛИМНИНГ
ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎН
“NEW2AN, ICFNDS,
номли параллель
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

laboreconomics.uz

“**Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali**” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.
Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.
Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com
Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz
Bog‘lanish uchun telefonlar:
+998 (99) 881-86-98.

TOSHKENT-2023

EDITORIAL BOARD | TAHRIRIYAT KENGASHI

Tahririyat Kengashi raisi: (Chairman of the Editorial Board)

Abdurahmanov Qalandar Xodjayeovich, O‘zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a‘zolari: (Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich,
i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich,
i.f.d., prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich,
t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich,
i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich,
i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich,
i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich,
i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich,
i.f.d, prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,
i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po‘latovich,
i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna,
i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich,
i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich,
i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayev,
i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich,
i.f.f.d., (PhD), dots.

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich,
i.f.f.d., (PhD), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich,
i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a‘zolari:
(Community Council members)

Bred Bodenzauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich
(Rossiya Federasiyasi)

Keynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)



Mas‘ul muxarrir (Editor-in-Chief):

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin):

Musayev Xurshid Sharifjonovich



MUNDARIJA (CONTENTS)

MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

Q.X. Abdurahmonov S.B. G'oyipnazarov	Сунъий интеллектни жорий этиш натижасида меҳнат бозоридаги ўзгаришлар	6–12
R.I. Nurimbetov A.M. Ismailov	O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishi va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash	13–21
N.T. Shayusupova S.S. Amirdjanova	Прогнозирование макроэкономических показателей роста экономики и занятости населения республики	22–29
I.A. Bakiyeva	Тошкент вилоятида ишсизларни замонавий касб-ҳунарга ўқитишни самарали ташкил этиш йўллари	30–34
S.I. Sotnikova	Наемный труд: институциональные эффекты неравновесной экономики .	35–41
A.S. Usmanov M.A. Bahridinova	Qashqadaryo viloyatida bandlikning tarmoq tuzilishidagi o'zgarishlar va uning aholi turmush farovonligiga ta'siri	42–48
X.F. To'xtayeva	Туристик хизматлар бозорида бандликни тартибга солиш ва бошқариш бўйича илғор хорижий тажрибалар	49–56
B.Z. Ganiyev	O'zbekiston hududlarida bandlikning iqtisodiy o'sishga nisbatan elastikligi tahlili	57–61

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

S. Sotnikova N. Sotnikov	Ecology of the employee's career based on the concept of time management .	62–70
A.N. Turayev B.B. Suvonov	Направления развития анализа затрат труда в хозяйствующих субъектах	71–76
B.B.Suvonov	Зарубежный опыт анализа показателей затрат труда в хозяйствующих субъектах	77–82
Z.M. Xasanova	Enhancing economic education and human resources management: a study of innovative approaches in Uzbekistan's higher education institutions	83–91
R.R. Oqmulloyev	Инсон ресурсларини бошқариш — олий таълим муассасаларининг глобал рақобатбардошликка эришиш омили	92–102
B.B. Mardonov	Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini baholash	103–108
M.Sh. Xaydarova	Использование искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами	109–123

INSON KAPITALI

A. Zikriyoyev D. Khojamqulov M. Raimjanova N. Turayev A. Abdullayev	Human capital development in the context of health and safety regulation: policy analysis in construction industry	124–138
A. Zikriyoyev M. Farmonova Ch. Keldiyorova D. Nekboyev O. Murodova	Orientation / induction day as a remedy for human capital investment at higher education	139–150
A.S. Boltayev Y.M. Otaboyev	The impact of health and education expenditure on economic growth in case of Uzbekistan	151–163
O.A. Eshbayev	Strategic integration of emerging technologies in engineering education: a holistic approach to cultivate human capital for the digital economy	164–169

A.O. Jumanov R.A. Omirzakov	Innovative environmental education in higher education: fostering sustainable mindsets for a greener future	170–175
I.Sh. Khadjiyeva	School climate quality and education quality: evidence from 15 worst performing nations at PISA 2018	176–187
M.O. Kurolov	Leveraging digital healthcare marketing strategies to enhance social welfare through human capital development	188–192
M. Numanova F. Khakimov	Priorities for the development of national human capital in the economy	193–198
M.X. Xo‘jayeva	Properties of innovative activity in the education system of Uzbekistan	198–203
H.T. Yaxshiyev	Mehmonxona hamda restorani biznesi faoliyati tushunchasi va mohiyati	204–206
X.B. Nasriddinov	O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta‘lim metodlaridan foydalanish	207–210
Sh.Y. Sharobiddinov	Investing in human capital: a comparative analysis of democratic and authoritarian regimes	211–220
Z.M. Xasanova	Comparative analysis of innovative education management strategies for economic education and green development: lessons from foreign countries	221–228
S.R. Xolbayeva	Трансформация системы подготовки кадров в целях повышения эффективности функционирования человеческого капитала в экономической системе	229–238
INSON TARAQQIYOTI		
Sh.U. Jo‘rayeva	Socio-economic significance and analysis of the standard of living of the population	239–244
N.M. Khazratkulova	The impact of inter-budgetary relations on regional growth and the standard of living of the population of the regions (on the example of the republic of Uzbekistan)	245–250
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARITRISH		
G.Q. Abduraxmonova M.X. Fayziyeva Sh.Q. Xoliyorova	O‘zbekiston davlat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashda raqamli rivojlanishning o‘rni	251–261
GENDER TENGLIK		
G.Q. Abruraxmonova N.U. Khalimjonov	Gender inequality in labour market	262–268
MUNOSIB MEHNAT		
Sh.X. Raxmatullayeva	Milliy korxonalarda mehnat samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tizimini imkoniyatlari	269–275
Z.U. Usmonov	Ko‘zi ojiz shaxslarni ish bilan ta‘minlashning obyektiv zarurligi	276–283
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
L.F. Amirov	Современные тенденции развития аграрного сектора Республики Узбекистан	284–293
I. Khotamov A. Kasimov Y. Najmiddinov G. Yuldashev	The current importance of alternative energy and renewable energy in Uzbekistan	294–317
Z.T. Abdurakhmanova	Factors affecting sustainable agriculture and food production in Uzbekistan	318–328
J.X. Ishanov	Determination of hydraulically acceptable length of drip irrigation pipe	329–334

U.Sh. Duskobilov	Influence of monetary policy instruments on macroeconomic stability during the transition to inflation targeting in Uzbekistan	335–342
Sh.D. Ergashkhodjayeva E.Y. Khojiyev	The EU’s generalised system of preferences: impact on foreign trade of domestic products	343–348
O.A. Eshbayev	Exploring synergies: redefining engineering education management for industry 4.0 in the digital economy era	349–354
H.B. Haydarov	O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rni	355–361
M.R. Khidirova	Improving the efficiency of corporate governance based on the modeling of agricultural machinery enterprises	362–369
B.N. Ishniyazov	Analysis of the activities of innovation of the agricultural sector of our country	370–374
N.N. Ismoilov	Implementing SDGS (sustainable development goals) in small business entities	375–380
N.S. Karimova	O‘zbekistonda klasterlar faoliyatini tashkil etish mexanizmi	381–385
M.R. Khayitova	The essence of green loans in a global unstable environment	386–391
S.B. Maxmudov	Milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlilini baholash	392–401
Y.F. Najmiddinov	Initial efforts to develop green energy and green growth in Uzbekistan	402–407
Ch.G. Nosirova	Developing sustainable pathways for textile product exports: a green strategy approach to enhance social welfare	408–415
N. Khalimjonov P. Allayarov	The gravity trade model for Uzbekistan	416–424
D. Usmonova	Evaluating the role of marketing strategies in fostering the growth of viticulture enterprises for achieving sustainable agricultural development	425–431
МАКРОИҚТИСОДИЙОТ		
A. Valiyeva	Assessing the impact of sustainable agricultural practices on legume market dynamics: a comprehensive marketing research analysis	432–440
V.K. Yarashova	The mutual influence of transport on macroeconomic indicators in Uzbekistan	441–447
M.S. Yusupov G.T. Ismoilova	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida agrosanoat klasterlarining ahamiyati va rivojlantirish imkoniyatlari	448–459
M.T. Abdurahmanova M.M. Ismailova	Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишнинг хориж тажрибасини такомиллаштириш	460–465
N.B. Achilova	Сущность и значение национального брендинга стран в условиях глобализации	466–474
J.N. Bayisbayev	Мамлакатимизнинг тадбиркорлик субъектларини ижтимоий фаолиятини қўллаб-қувватлашдаги иштироки	475–481
A. Valiyeva	Оценка роли устойчивых методов ведения сельского хозяйства в повышении конкурентоспособности рынков бобовых: глобальный маркетинговый анализ	482–490
F.R. Bobobekov	Мақроқиқтисодий барқарорлик шароитида факторингга таъсир этувчи омиллар	491–497
D.B. Xajiyev	Даромадларни қайта тақсимлаш жараёнларини тартибга солишнинг фискал воситалари	498–504



QASHQADARYO VILOYATIDA BANDLIKNING TARMOQ TUZILISHIDAGI O‘ZGARISHLAR VA UNING AHOLI TURMUSH FAROVONLIGIGA TA’SIRI

Usmanov Anvar Saidmahmudovich

i.f.d., prof., TDIU huzuridagi
O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari ilmiy-tadqiqot markazi bosh ilmiy xodimi,
G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining Toshkent shahridagi filiali, kafedra professori

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TDIU huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari ilmiy-tadqiqot markazi
tayanch doktoranti

Annotasiya. Respublikada qabul qilingan Davlat dasturlari asosida milliy va mintaqaviy dasturlar doirasida qator tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lsada, shakllanayotgan mehnat resurslarining asosiy qismi kasb malakaga ega bo‘lmagan yoshlar hissasiga to‘g‘ri kelishi hududda mavjud muammolarning yechimini qiyinlashtirmoqda. Mavjud vaziyat unda olib borilayotgan yoshlar siyosatini yanada faollashtirish va maxsus (maqsadli) davlat dasturlariga zaruriyat tug‘dirmoqda. Ushbu maqolada bandlikning noan‘anaviy shakllarini mumkin qadar kengaytirish va yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, ana shu yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilsa, ijobiy natijalar berishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mehnat resurslari, bandlik, migrasiya, aholi, xotin-qizlar bandligi.

ИЗМЕНЕНИЯ В СЕТЕВОЙ СТРУКТУРЕ ЗАНЯТОСТИ В КАШКАДАРЬНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЖИЗНЕБЛАГОСОСТОЯНИЕ НАСЕЛЕНИЯ

Усманов Анвар Саидмахмудович

д.э.н., проф., главный научный сотрудник
Научно-исследовательского центра научных основ
и проблем развития экономики Узбекистана при ТГЭУ,
Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова, профессор кафедры

Бахриддинова Муаззам Азам кизи

Главный докторант Научно-исследовательского центра
научных основ и проблем
развития экономики Узбекистана при ТГЭУ

Аннотация. Хотя в рамках республиканских и региональных программ на основе принятых в республике государственных программ реализован ряд мероприятий, однако тот факт, что основную часть формируемых трудовых ресурсов вносит молодежь, не имеющая профессиональной квалификации, затрудняет задачу. решить существующие проблемы региона. Сложившаяся ситуация требует дальнейшей активизации молодежной политики и специальных (целевых) государственных программ. В данной статье поясняется, что максимальное расширение нетрадиционных форм занятости и привлечение молодежи к общественно полезному труду дадут положительные результаты, если будут реализованы в рамках данной молодежной политики.

Ключевые слова. Трудовые ресурсы, занятость, миграция, население, занятость женщин.

CHANGES IN THE NETWORK STRUCTURE OF EMPLOYMENT IN KASHKADARYA REGION AND ITS EFFECT ON THE LIVING WELL-BEING OF THE POPULATION

Usmanov Anvar Saidmahmudovich

Doctor of Economics, Professor,
Chief Researcher of the Research Center for
Scientific Foundations and Problems of Economic
Development of Uzbekistan at TSUE,





Abstract. Although a number of activities have been implemented within the national and regional programs based on the state programs adopted in the republic, the fact that the main part of the labor resources being formed is contributed by young people who do not have professional qualifications makes it difficult to solve the existing problems in the region. The current situation calls for further activation of youth policy and special (targeted) state programs. In this article, it is explained that expanding the non-traditional forms of employment as much as possible and involving young people in socially useful work will give positive results if implemented within the framework of this youth policy.

Keywords. Labor resources, employment, migration, population, employment of women.

Kirish:

Mehnat resurslari rivojlanishining muhim omillaridan biri uning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligidir. Aholining ish bilan bandligi har qanday davr, davlat va umuman jamiyat uchun muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shu bois, aholini ish bilan bandligini oshirish davlat ahamiyatiga molik masala bo'lib, barcha davrlarda unga asosiy e'tibor qaratib kelingan[3,4,5,6].

O'zbekiston agrar-industrial mamlakat bo'lib kelganligi unda aholining ish bilan bandligini, uning tarmoq tuzilishini belgilab bergan. Ushbu hol ayniqsa, Mirzacho'l va janubiy mintaqalar iqtisodiyotida o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumki, Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida agrar sohalar ustunlikka egaligi bilan ajralib turadi. Bu holat o'tgan asrning 60-70 yillarida Qarshi dashtining o'zlashtirilishi bilan bog'liq holda amalga oshgan. Shu boisdan, mintaqa ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosan qishloq xo'jaligiga bog'liqdir. Sanoat, qurilish va infrastruktura obyektlari, ya'ni xizmat ko'rsatish sohalarining shakllanishi agrar sohalar zamirida amalga oshgan.

Mustaqillik yillari aholi bandligi sohasida ro'y bergan o'zgarishlar, uni shartli ravishda ikkiga, ya'ni, mehnatga layoqatli larga nisbatan bandlar salmog'ining kamayishi va ko'payish davrlariga ajratishga asos bo'ladi. Uning birinchisi 1991-1996-yillarga to'g'ri kelib, bu davrda mintaqa iqtisodiyoti tarmoqlarida bandlar salmog'i 72,6 foizdan 60,7 foizgacha qisqargan. Mazkur vaziyat dastlab aksariyat korxonalaridagi xo'jalik aloqalarining uzilishi, ishlab chiqarishning izdan chiqishi bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik u mulk shaklining o'zgarishi va ba'zi sohalardagi ortiqcha ishchi kuchini chetlatish bilan bog'liq holda davom etgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Milliy iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish jarayonida qishloqqa sanoatni olib kirish va bandlikning noan'anaviy shakllarini tashkil etish orqali uning tarmoq tuzilishi o'zgartirib borildi. Ushbu tadbirlar natijasi o'laroq, 1997-yildan viloyat iqtisodiyotida band bo'lganlar salmog'ining oshib borishiga erishildi. Bu esa aholi bandligi dinamikasida yangi davrni boshlab berdiki, u hozirgacha ham davom etib kelmoqda.

Viloyat iqtisodiyotida band bo'lganlar 1331,5 ming (2022-yil yakunida) kishi bo'lib, ularning 84 foizi nodavlat korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilmoqda[7]. Hududdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning 80 foizdan ortig'i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi. Biroq, ish bilan bandlikning davlat va nodavlat sektorlari o'rtasidagi bunday taqsimot viloyatning barcha subyektlari – tumanlariga xos emas. Xususan, Muborak, Koson, Kasbi, Qarshi, G'uzor, Shahrisabz tumanlarida strategik ahamiyatga molik korxonalarining nisbatan ko'pligi ularda davlat tarmog'ida bandlar ulushining biroz yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashda dehqon-fermer xo'jaliklari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari muhim rol o'ynaydi. Ularda hozirgi kunda jami bandlarning 75 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi, Mirishkor, Chiroqchi tumanlarida bu ko'rsatkich 75-80 foiz atrofida.

Tahlil va natijalar:

Mustaqillik yillarida mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiy sektorni jadal rivojlantirilishi ish bilan bandlikning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol, ayniqsa, viloyatning Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', G'uzor tumanlarida yaxshi natija berib, mehnatga layoqatli aholining 80 foizigacha ish bilan ta'minlanishiga olib keldi.

Bandlikning tarmoq tuzilishidagi asosiy o'zgarishlar qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, uy-joy va kommunal xo'jaliklarda kuzatilib, ular quyidagilarga bog'liq bo'ldi:

– Muborak, G'uzor, Shahrisabz, Kitob va Qarshi sanoat tugunlarida dastlab iqtisodiy aloqalarning uzilishi, keyinchalik esa ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarning keltirilishi, yengil va oziq-ovqat sanoatida



► **Mehnat bozori munosabatlari**

raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar yaratish uchun yangi korxonalar va ishlab chiqarish liniyalarining barpo etilishi, hukumatning qishloqqa sanoatni olib kirish borasidagi dasturlarining amalga oshirilishi;

– Irrigatsiya bilan bog‘liq yirik korxonalar-tashkilotlarning viloyatning tog‘li hududlaridan yangi o‘zlashtirilayotgan hududlarga ko‘chirilishi;

– Uy-joy-kommunal xo‘jaliklarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, boshqaruv shaklining o‘zgarishi, ular ixtiyorida kichik korxonalar yopib yuborilishi;

– Respublikada agrar sohaning isloh qilinishi, yerga, mulkka bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, qishloq xo‘jaligini ortiqcha ishchi kuchidan xalos etilishi va boshqalar.

Ushbu jarayonlar mahalliy hamda mintaqaviy omillar ta‘sirida ro‘y berib, har bir hududning ichki imkoniyat va ehtiyojlarini o‘zida aks ettiradi. Masalan, 1991-2003-yillarda qurilish sohasida bandlar ulushi viloyatning shimoli-sharqiy zonasida sezilarli kamaygan holda, o‘zlashtirilgan (g‘arbiy) zonada u ikki martadan ortiqqa o‘sgan. Natijada, bu, viloyat umumiy holatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan va qurilish sohasida band bo‘lganlar ulushi 2010-yilga kelib mustaqillik arafasidagi darajasiga tenglasha olmadi. Biroq shundan so‘ng qurilish tarmoqlarida jiddiy o‘shish kuzatilib, u jami bandlarning 13,9 foizini (2022-yil) tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida bandlikning tarmoq tuzilishidagi o‘zgarishlar (%da, yil yakunida)

Nº	Iqtisodiyot tarmoqlari	1991	2010	2022
1.	Qishloq xo‘jaligi	75,0	26,8	28,1
2.	Sanoat	5,1	8,2	8,4
3.	Qurilish	3,0	13,0	13,9
4.	Transport va aloqa	6,2	5,5	5,3
5.	Savdo, umumiy ovqatlanish	1,9	12,7	10,3
6.	Uy-joy, kommunal xo‘jalik	2,0	2,8	1,3
7.	Sog‘liqni saqlash	2,2	8,2	4,2
8.	Xalq ta‘limi, fan va madaniyat	2,9	13,8	8,3
9.	Moliya, kredit va sug‘urta	0,8	0,4	0,3
10.	Boshqa tarmoqlar	0,9	8,6	19,9

Manba: Qashqadaryo viloyati statistika qo‘mitasi <http://www.qashstat.uz/uz/>

Viloyat qurilish sohasida band bo‘lganlarning absolyut miqdorida son jihatdan ortib borishi makroiqtisodiyot sohasida bandlarning soni va tarmoq tuzilishidagi o‘zgarishlarga ko‘p jihatdan bog‘liq holda kechmoqda. Ayni holat xalq ta‘limi, uy-joy va kommunal xo‘jaliklari uchun ham xos. Ularda ham mustaqillik yillarida bandlar salmog‘i qisqargan holda faoliyat ko‘rsatayotganlar soni ortib borgan.

Guvohi bo‘lganimizdek, qishloq xo‘jaligini mustasno qilganda barcha an‘anaviy sohalarda band bo‘lganlar soni sezilarli oshgan. Shuningdek, keyingi yillarda bandlikning noan‘anaviy turlari tobora kengayib bormoqdaki, u shubhasiz, ishchi kuchining qonuniy mehnat daromadiga ega bo‘lish va ish tanlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bandlikning tarmoq tuzilishidagi bunday o‘zgarishlar ishchi kuchi bilan ortiqcha ta‘minlangan va shu bois mehnat samaradorligi pasayib ketgan qishloq xo‘jaligi uchun ijobiy natijalar bermoqda.

Agrar sohalardan chetlashtirilganlar 1996-yili 6,7 ming, 1999-yili 4,2 va 2001-yil 2,3 ming kishi bo‘lsa, 2003-yilda bu ko‘rsatkich 1,2 ming kishini tashkil etgan. 2022-yilga kelib, ushbu soha umumiy bandlikning 27 foiziga to‘g‘ri kelgan. Mazkur jarayonlar xususiy tomorqa va uy xo‘jaligida bandlik hisobidan amalga oshib, kelajakda agrar sohalarda band bo‘lganlar ulushi 30 foiz atrofida saqlanib qolishi kutiladi. Qolaversa, qishloq joylarda yer maydonlarining mavjudligi bu toifadagilarni dehqon (shaxsiy) xo‘jaliklarda band qilish imkonini beradi. Ko‘rilayotgan davrda qishloq xo‘jaligidan ajratib, boshqa sohalarga jalb qilinganlarning yarmidan ortig‘ini dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Mazkur ko‘rsatkich viloyatning yangi o‘zlashtirilgan zonalarida yanada yuqori (64,2%). Ularning har birida yuzdan ortiq kishi o‘z shaxsiy tomorqalarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha band qilingan bo‘lib, shu yo‘l bilan bandlik maqomiga ega bo‘lganlarning 88,3 foiziga to‘g‘ri keladi. Bu hol ulardagi yer fondining kattaligi, aholi sonining esa nisbatan kamligi bilan izohlanadi. Shahrisabz va Kitob tumanlarida esa aholi ixtiyorida yer-uchastkalarining kamligi va ayni kunda uy-joy uchun ajratilayotgan maydonlarning cheklanganligi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida bo‘sh ishchi o‘rinlarining deyarli yo‘qligi ularda qishloq xo‘jaligidan ajratilganlarni qisqa muddatda ish bilan band qilishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu hol ortiqcha mehnat resurslarining shakllanishi va ko‘p miqdordagi qishloq xo‘jalik xodimlarining ishsiz qolib ketishi muammosini keltirib chiqarmoqda.



Bo'shatilayotgan ishchi kuchining yaratilayotgan ish o'rinlarida ishlash istagining yo'qligi, o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarining cheklanganligi va boshqa turli sabablar agrar sohalardan ajratilganlarni to'liq ish bilan ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligidan bo'shab chiqayotganlarning ishga joylashtirilish darajasi 2010-yilda 19,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu ko'rsatkich 18,9 foizga to'g'ri kelmoqda. Qolgan qismi turli sabablarga ko'ra mazkur ish joylarida ishlash ishtiyoqi yo'qligini va buning sababi sifatida chet elda ishlash xohishini bildirmoqda. Shuningdek, viloyat mehnat organlariga ish so'rab murojaat qilganlarni (2022-yilda jami 57586 kishi) to'liq yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash rejalashtirilgan, amalda esa 52665 kishi ishga joylashtirilgan. Boz ustiga, uning katta qismi mintaqaviy dasturlarda nazarda tutilganidek, sanoat ishlab chiqarishida emas, balki, dehqon xo'jaliklari, yakka tadbirkorlik, uyda ish olib ishlash (kasanachilik) va boshqalarda mehnat faoliyatini boshlaganlar.

Shu o'rinda viloyat va umuman barcha qishloq joylar uchun umumiy holat – ishdan chetlashganlarni ish bilan ta'minlash bo'lib qolmoqda, xolbuki, viloyatda yangidan shakllanayotgan, ya'ni mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotganlarning yillik soni 50-55 ming kishini tashkil qiladi. Shakllanayotgan ishchi kuchiga teng ish o'rinlarining mavjud emasligi mehnat resurslarini mustaqil mehnat faoliyati yuritishga majbur etadi. Bu o'z navbatida, mehnat resurslarini hisobga olish va ularning ishsizlik darajasini aniqlash jarayonlariga muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

Viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi bugungi muammo ham mehnat resurslarining yashirish bandligi yoki noqonuniy mehnat daromadiga ega bo'lishidir. Bu holat mehnat resurslarini tegishli tashkilot ro'yxatidan o'tkazish va rasmiy ishsiz qismini aniqlashda qiyinchilik tug'dirmoqda. Mavjud vaziyat yashirin ishsizlik orqali aniqroq ifodalanadi.

Mintaqada yashirin ishsizlik muammosi yaqin-yaqingacha asosan qishloq xo'jaligi uchun xos bo'lgan bo'lsa, hozirda u iqtisodiyotning boshqa jabhalarini ham qamrab olmoqda, Chunonchi, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlaridagi yashirin ishsizlar katta miqdordagi maoshsiz yoki qisman maoshi saqlangan holda ta'tilda bo'lganlarni va vaqtinchalik ishlab turganlarni qamrab olmoqda. Masalan, 1996-yil mintaqadagi 13,6 ming yashirin ishsizlarning 70-80 foizi agrar sohalarda hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, agrar sohalarda 40-45; sanoatda 25 va xizmat ko'rsatishda 18 foizni tashkil etgan. Korxonalarining yashirin ishsiz sifatida saqlanib turgan zahira ishchi kuchi Shahrisabz-Kitob aglomeratsiyasida, ayniqsa, ko'p bo'lib, ular yaratilayotgan yangi ish o'rinlarini egallab olmoqda. Shu bois, bu tumanlarda qishloq xo'jaligidan ajratilayotganlarni sanoat tarmoqlarida band etish qiyin kechmoqda.

2-jadval

Viloyatda mehnat resurslaridan foydalanish holati (yil boshida)

№	Shahar va tumanlar	Jami mehnat resurslari soni, ming kishi		Iqtisodiy faol aholi soni, ming kishi		Iqtisodiyotda band aholi soni, ming kishi		Jami ishsiz aholi soni, ming kishi		Yaratilgan yangi ish o'rinlari soni, birlik		<i>shundan:</i> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda, birlik	
		2012 y	2022 y	2012 y	2022 y	2012 y	2022 y	2012 y	2022 y	2012 y	2022 y	2012 y	2022 y
1.	G'uzor	79,0	112,4	57,0	74,3	48,5	70,0	2,2	3,9	5,7	3,8	4,6	1,0
2.	Dehqonobod	56,0	78,9	41,7	61,6	28,0	57,6	1,4	3,6	3,1	3,3	2,9	1,2
3.	Qarshi	103,8	145,7	71,9	102,4	73,2	126,2	2,0	5,6	5,4	4,3	4,9	1,6
4.	Koson	112,2	131,9	77,8	109,2	68,4	122,6	2,2	6,0	3,4	3,4	2,9	1,6
5.	Qamashi	104,9	153,9	71,0	107,1	63,5	110,7	2,2	5,8	4,4	3,2	2,9	1,6
6.	Kitob	110,4	143,9	80,8	106,0	65,0	99,5	2,5	5,9	5,7	3,8	4,7	1,5
7.	Kasbi	77,2	66,1	52,6	77,0	48,0	72,3	1,8	4,2	3,5	3,4	2,7	1,7
8.	Muborak	47,2	48,2	40,4	30,4	38,5	28,4	1,4	1,8	3,4	3,2	2,6	0,9
9.	Mirishkor	51,9	80,1	39,1	49,9	41,0	49,5	1,3	3,1	2,4	2,7	2,0	0,7
10.	Nishon	56,4	106,7	44,2	55,9	51,4	52,5	1,0	3,1	3,6	2,7	2,5	1,2
11.	Chiroqchi	146,4	214,4	88,4	156,8	79,0	176,8	2,6	9,1	6,6	5,4	6,1	2,4
12.	Shahrisabz	156,0	199,9	102,6	142,1	88,0	133,6	2,7	7,7	5,8	5,3	4,9	2,6
13.	Yakkabog'	108,3	142,8	77,8	118,2	51,5	131,9	1,8	5,7	5,7	4,3	5,1	1,6
14.	Qarshi sh.	133,7	158,6	89,8	105,7	106,0	99,9	3,7	5,7	8,8	6,0	5,3	3,7
15.	Viloyat b.	1343,4	1783,4	935,1	1296,6	850,0	1331,5	28,6	71,3	67,5	54,8	54,1	23,3

Manba: Qashqadaryo viloyati statistika qo'mitasi <http://www.qashstat.uz/uz/>



► **Mehnat bozori munosabatlari**

Ta’kidlash joizki, agrar sohalar viloyatda ishchi kuchi taklifini, ayni paytda, unga bo’lgan talabni ham shakllantiruvchi asosiy manba bo’lib xizmat qilmoqda. Viloyatda ishga joylashtirish jarayonlarining tahlili ishchi kuchini ish bilan ta’minlashda sanoat, qurilish sohalar bilan bir qatorda qishloq xo’jaligi ham asosiy rol o’ynayotganligidan guvohlik bermoqda (3-jadval). Chunosonchi, 2022-yil yakunlariga ko’ra, jami ish o’rinlarga ega bo’lganlarning 42,0 foizi (1999-yili 51,3%) agrar sohalariga to’g’ri kelib, u 21299 ish o’rnini tashkil etadi. Ushbu holat, shirkat va dehqon va fermer xo’jaliklarining tashkil etilishi bilan bog’liq holda kechmoqda.

Moddiy tarmoqlarda bandlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolinishi, qishloq xo’jaligidan katta miqdorda ishchi kuchining ajralib chiqayotganligi va ularni ish bilan ta’minlashdagi muammolar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturaning to’liq shakllanmaganligi kabi omillar mintaqada aholi bandligini yaxshilashga tusqinlik qilmoqda.

Ma’lumki, mehnat resurslarining bandligi borasidagi vaziyatning shakllanishi ko’p jihatdan ish haqi miqdoriga bog’liq. Binobarin, ish topish muammo bo’lib turgan bir paytda xodimlar qo’nimsizligi yoki muayyan ish o’rinlarining bo’sh turib qolishining asosiy sababi ham ulardagi ish haqi darajasining pastligidadir.

3-jadval

Viloyatda mehnat resurslarini ishga joylashtirish va ishdan ozod etish darajasi (2022-yil 1-yanvar holatiga ko’ra)

Iqtisodiyot tarmoqlari	Ishga joylashtirilganlar		Ishdan ozod etilganlar	
	jami	shundan: ayollar	jami	shundan: ayollar
Jami:	50671	19502	755	337
Sanoatda	4603	2014	6	0
Qishloq xujaligi	21299	8806	0	0
Transport va aloqa	1388	227	7	0
Qurilish	3868	438	3	0
Savdo va umumiy ovqatlanish	830	301	0	0
Uy-joy va kommunal xizmat	531	197	7	2
Maishiy xizmat	993	300	0	0
Fan va ilmiy sohalar	2162	1197	370	250
Boshqaruv	583	270	29	1
Boshqa sohalar	14414	5752	333	84

Manba: Qashqadaryo viloyati statistika qo’mitasi <http://www.qashstat.uz/uz/>

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish va ish haqi miqdorini muntazam oshirib borish borasida qator chora-tadbirlar ko’rilmoqda. Viloyat hokimligi ma’lumotlariga ko’ra, iqtisodiyot tarmoklarida ishlovchilarning 2012-yil oxiridagi o’rtacha ish haqi 528 192 so’mga teng bo’lgan bo’lsa, 2022-yilning dekabrda bu ko’rsatkich 1 687 171 so’mga yetdi[7]. Biroq, shu o’rinda ta’kidlash kerakki, xalq xo’jaligi tarmoqlarining barchasida ham ish haqi miqdori bir xil emas. Masalan, viloyatning fan, maorif, sog’liqni saqlash tarmoqlarida ish haqining biroz pastligi kuzatiladi. Natijada, yil yakunlari bo’yicha bo’sh qolgan 755 o’rinning deyarli barchasi yuqoridagi sohalar hissasiga to’g’ri keldi. Ko’rib o’tilgan sohalarida faoliyat yuritayotganlarning jinsiy tarkibida yaqin-yaqingacha erkaklar ulushi mutloq ko’pchilikni tashkil etgan bo’lsa, bugungi kunga kelib, ular asosan ayollarga xos bo’lgan, to’g’rirog’i ayollar mehnati ko’p qo’llaniladigan sohalariga aylanib qolmoqda.

Viloyat Bandlik bosh boshqarmasi ma’lumotlariga ko’ra, jami taklifning 25,0 foizi, shuningdek, shakllangan mehnat taklifining esa 45,5 foizi xotin-qizlar tomonidan bildirilgan. Ushbu toifa uchun mehnatga talab – (hamshiralik, ip yigiruvchi, o’qituvchi, shifokor, farroshlik) 8 mingni tashkil qilgan. Mehnat resurslarining jinsiy tarkibida ayollar tomonidan bildirilayotgan taklifning son jihatdan ortib borishi hududning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ko’ra amalga oshadi. Shu bois, viloyatning g’arbiy, ayniqsa, shimoli-sharqiy qismida jami taklif doirasida xotin-qizlar salmog’i ortib bormoqda. Ushbu jins vakillarining mehnat organlariga murojaat qilish darajasining ortishiga:

- taklif qilinayotgan ish o’rinlarining shu toifalarga mos kelishi;
- ularda mustaqil ishga joylashish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- moddiy yordam, ishsizlik nafaqasiga ega bo’lishdagi imtiyozlarning yuqoriligi;
- kasbiy tayyorgarlikdan o’tish va malaka o’rtirish mumkinligi;
- uyda ish olib ishlash imkoniyatlarining mavjudligi va boshqalar sabab bo’lmoqda.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligining ortishi mahalliy idoralar oldida muayyan talablarni qo’yadi. Mehnat resurslarining bugungi vaziyati ayollar mehnatidan uy xo’jaligi va kasanachilikda foydalanish zaruriyatini tug’diradi. Buning uchun, hududlarning tarixiy rivojlanishi va ko’p asrlik hunarmandchilik ko’nikmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, gilam to’qish, jun yigirish, do’ppi, chopondo’zlik, so’zana tikish shular jumlasidandir.



Umuman olganda, ichki imkoniyatlardan foydalanish, ayniqsa, asriy an'analarni tiklash, nafaqat, xotin-qizlar bandligini oshirishning samarali vositasi, balki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni asosi bo'lib ham xizmat qiladi. Bandlikning bunday usulidan foydalanish bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ayollar o'z uylarida mehnat qilish, daromad orttirish bilan bir vaqda farzandlari uchun vaqt ajrata oladi, ayni vaqtda yoshlar oiladayoq muayyan kasb malakasiga ega bo'lib boradi.

Aholi bandligini ko'rib o'tilgan yo'nalishlarda tashkil etish ishchi kuchi uchun bir qancha ijobiy jihatlariga ega bo'lib, ular ish vaqtining egiluvchanligi, mehnatning ijodiyliigi, faoliyatning erkinligi, sharoitga tez moslashish va eng asosiysi — daromadning muntazam oshirib borishi mumkinligi bilan belgilanadi. Holbuki, aksariyat ish o'rinlarida mehnat sharoiti va munosabatlari mustahkam ish rejimi ya'ni egiluvchan emasligi bilan xarakterlanib, bugungi bozor munosabatlariga ko'p ham mos kelavermaydi. Bizningcha, mehnat bozorini takomillashtirishning asosiy muammolari ham aynan ana shu munosabatlar orqali namoyon bo'lmoqda va joylardagi ushbu muammoni sosiologik tadqiqotlar orqali baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar:

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki O'zbekistonda yangi kasblarni yaratish, raqamli iqtisodiyotni rivojlanish sharoitida mehnat bozori migrasiya jarayonlarining ham raqamli transformasiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu bandlikning yangi turlarini yaratishda va raqamli bandlikni ham huquqiy himoyalashga asoslangan tizimni yaratish zarurligini taqozo etmoqda.

Shunday qilib, respublikadagi demografik vaziyat va shakllanayotgan mehnat resurslarini ish bilan bandligini ta'minlash hamda uning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda, hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi muammolarni e'tiborga olish talab etiladi:

1. Hududda mehnat resurslari shakllanishining demografik omillarini muntazam hisobga olib borish;
2. Mehnat resurslari sonining o'sishi bilan bandlik dinamikasi o'rtasida proporsional tenglikni ta'minlash, amalda esa, mehnatga qobiliyatli yigit-qizlarning ko'pchiligi mehnatga qobiliyatli aholining kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni emas, balki uning tabiiy yo'q bo'lish o'rnini qoplamoqda;
3. Taklif etilayotgan ish o'rinlarining ishchi kuchi ehtiyojlariga mosligini ta'minlash va dastavval ish haqi darajasiga e'tibor qaratish;
4. Ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj bilan ularning mavjudligi o'rtasidagi sifat jihatidan mutanosiblikni va albatta inson manfaatlarini to'liq hisobga olinishiga erishish;
5. Hududdagi mavjud ijtimoiy demografik vaziyatni hisobga olib, mehnat bandligining to'liq bo'lmagan ish kuni yoki haftasida, o'zgaruvchan grafik bo'yicha ishlash, masofadan ishlash kabi shakllariga e'tibor qaratish;
6. Viloyatda qaror topgan bandlikning tarmoq va kasbiy tuzilishini tubdan yangilash, ijtimoiy va xizmat sohaslarini kengaytirish, xolbuki, bandlikning zamonaviy tarmoq tuzilmasi o'tgan asrning 70-80-yillarida vujudga kelgan bo'lib, u "hozirgi, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermaydi, chunki, ishchilar kuchini jalb qilayotgan ilmiy texnikaviy taraqqiyot darajasida takror ishlab chiqarishga imkon bermaydi va inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilmagan". Mavjud vaziyat, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ishlovchining aksariyat qismi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnat qilishi bilan izohlanadi.
7. Ishchi kuchining kasbiy tayyorgarligi yoki mutaxassisliklarning bir tomonlama rivojlanishiga barham berish va zamonaviy kasb malakaga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish. Bugungi vaziyat esa, aksincha, mehnat bozorida ma'lum kasbga ega bo'lganlarni ko'p to'planishiga, ba'zilarini esa yetishmasligiga olib kelgan. Xususan, o'rganilayotgan hududda ham mehnatda bandlarning kasbiy tarkibi mahalliy tarmoqlar ta'siri ostida vujudga kelgan bo'lib, unda qishloq xo'jalik, pedagog va injener-texnolog xodimlar ustunlik qiladi. Ishchilar orasida esa an'anaviy kasblar vakillari ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga, 80-yillarda tug'ilganlarning mehnat bozoriga chiqishini jadallashuvi kam malakali va malakasiz kadrlarning ulushini ancha yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Kasbiy tarkibning bir tomonlama rivojlanishi, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohaslarida yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki, yaqin o'tmishda bu tarmoqlar oliy bo'g'in mutaxassislar bilan to'ldirishga asoslangan bo'lib, o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlari mavjud emasdi. Insonning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mehnat turlarini zaif rivojlanishiga yana bir sabab-mazkur sohalarda ish haqining pastligi va faoliyatning ijodiy emasligidir. Qashqadaryoda xizmat ko'rsatishni turli yo'nalishlarda rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Ammo bu ham ishsizlik darajasini kamayishiga katta hissa qo'sholmaydi.

Shu sababdan bu muammoni hal qilish maqsadida viloyatdagi mehnat resurslarini bir qismini Qoraqalpog'iston Respublikasida yashash va o'sha joyda ishlash taklifini ilgari suramiz. Chunki respublikada tabiiy resurslarni ko'pligi va ularni qayta ishlab chiqarish hisobiga yangi ish o'rinlarini oshirish imkoniyati mavjud. Natijada viloyatdagi ishsizlik muammosi va respublika iqtisodiyotini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari ichki migrasiyani rivojlantirish hisobiga tashqi migrasiya sonini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu esa oiladagi turli ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal bo'lishiga, ajrimlar sonini kamayishiga, oilada uchinchi shaxs aralashuviga yo'l qo'ymaslik eng muhimi oilani saqlab qolish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.



► Mehnat bozori munosabatlari

Hududdagi muammolarga umumiy quyidagi yechimlarni taklif qilamiz:

1. Viloyatdagi ortiqcha mehnat resurslariga respublikadagi yer maydonlaridan uzoq muddatga maqsadli foydalanish uchun ajratib berish Viloyatdan Qoraqalpog‘iston Respublikasiga doimiy yashash maqsadida ko‘chib boradigan jismoniy shaxslarni daromad solig‘idan ozod qilish;
2. Qoraqalpog‘istondagi demografik vaziyatni yumshatish uchun maqsadli lohilarni ishlab chiqish va eng samarali loyihalarni amaliyotga tadbiiq qilish;
3. Qoraqalpog‘istondagi yer maydonlaridan aholi uchun turar-joy obyektlarini qurib foydalanishga topshirish;
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi mavjud bo‘lgan bo‘sh yer maydonlarida suniy shahar insho etishni davlat dasturiga kiritish;
5. Aholiga subsidiyalar ajratishni oshirish mexanizmini ishlab chiqish;
6. Viloyatdagi ish bilan band bo‘lmagan mehnat resurslariga oilaviy Qoraqalpog‘iston Respublikasida imtiyozli ravishda yashashni taklif qilish orqali ham ishsizlar sonini kamaytirishga hamda ekologik jihatdan ayanchli ahvolga kelib qolgan hududni shu orqali rivojlantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo‘yicha jamg‘armasi (UNFPA).-T., 2016. www.unfpa.uz.
2. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) «Mehnat migrasiyasi bo‘yicha global ko‘rsatkichlar: natijalar va uslubiyot» qo‘llanmasi. Jeneva. 2018 y., 4-b. www.ilo.org/global/topics/labour-migration/publications/WCMS
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>
- 2019 yil 5 fevraldagi PF-5655-son “O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi. <https://lex.uz/docs/-4766082>
- 2022 yil 28 yanvar PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi. <https://lex.uz/docs/5841063>
- Qashqadaryo viloyati statistika qo‘mitasi <http://www.qashstat.uz/uz/>
Население Республики Узбекистана за 2000-2017 гг. Стат сборники Госкомстат РУз.
- Islomov A.A. Mehnat bozori shakllanishining mintaqaviy xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). I.f.n ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya avtoreferati. 2004. 14 b.
O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami www.lex.uz veb-sayti.
- Islomov A.A. Mehnat bozori shakllanishining mintaqaviy xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. 2004 y. 71 b.
Qashqadaryo viloyati statistika va iqtisodiyot boshqarmalarining 2002-2022 yy. ma‘lumotlari.
- O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-328-sonli Qonuni. 2012-yil 2-may.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-sonli qarori.





MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

laboreconomics.uz

Muharrirlar:
Yaxshiyev H.T.
Matxo'jayev A.O.

Musahhih:
Kamilova D.J.

Tehnik muharrir:
Mirzayev J.O'.

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 31,6. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

FORUM "NEW2AN, ICFNDS and ICDISIS"

CONFERENCE "IFRS" ФОРУМ

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS" НОМЛИ КОНФЕРЕНЦИЯ

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN AND ICFNDS"

AND ICDISIS"



- Conditions for improvement
- Corporate Accounting
- Institutional problems
- Training personnel for the future
- Business environment
- Digital technologies

CONFERENCE

"S" CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER



100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

+998 99 881-86-98

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digital
- Green
- Environ
- Alter
- Artifi